

“NASOYIH-I SHOHRUXIY” ASARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “НАСОИХ-И ШАХРУХИ”

SOURCE-CRITICAL ANALYSIS OF THE BOOK “NASOYIH-I SHAHRUKHIY”

TURDIMIRZAYEV Jakhongir,

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

Doctoral candidate

Jahongirturdimirzayev1@gmail.com

A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2025/4/7

Annotatsiya: Temuriylar davriga oid manbalar Markaziy Osiyo tarixshunosligida alohida o‘rin tutadi. Ushbu yozma yodgorliklar Temuriylar davrini o‘rganishda muhim daliliy asos bo‘lib, temuriylarning davlat boshqaruvi tamoyillari, harbiy harakatlari hamda davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini tasvirlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada Shohrux Mirzo davrida muhtasib lavozimida faoliyat olib borgan Jaloliddin Muhammad Qoiniyning “Nasoyih-i Shohruxiy” asari tadqiq qilingan. Bu asarda asosan hukmdorga diniy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, siyosiy maslahatlar berish, adolat tamoyillarini tushuntirish va jamiyatda tartib va barqarorlikni ta‘minlash haqidagi qarashlar yoritilgan. Mazkur asar Temuriy Shohrux Mirzo davri ijtimoiy hayotini yoritishda juda ahamiyatlidir.

E‘tiborli jihati shundaki, bu asar temuriylar davri uchun hali tadqiq qilinmagan va muomalaga kiritilmagan manbalardan biridir. Ushbu tadqiqotda muallifning hayoti, asarning yozilish tarixi, sabablari, qo‘lyozma nusxasi, uning kodikologiyasi, tarixiy qimmatini va tarixshunoslikdagi o‘rni tahlil qilingan. Asar kodikologiyasini o‘rganish bilan qo‘lyozma Hirot xattotlik maktabi an‘analari, Temuriylar davriga xos bezak uslublari haqida ham qimmatli ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Tadqiqot ushbu asarning manbashunoslik nuqtai nazaridan ahamiyatini ochib, uning hozirgi davrdagi ijtimoiy-ma‘naviy jarayonlar uchun ham dolzarbligini ilmiy tahlil asosida asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Muhammad Qoiniy, “Nasoyih-i Shohruxiy”, Hirot, Shohrux Mirzo, tarixiy asarlar, kodikologiya, adolat, muhtasib.

Аннотация: Источники по истории эпохи Тимуридов занимают особое место в историографии Центральной Азии. Эти письменные памятники

являются важной фактической основой для изучения данного периода и имеют особое значение при освещении принципов государственного управления Тимуридов, их военных кампаний, а также социально-политической обстановки той эпохи.

В данной статье исследуется произведение «Насоих-и Шохрухий» Джалалиддина Мухаммада Коиний, который в период правления Шохруха Мирзы занимал должность мухтасиба. В этом сочинении преимущественно рассматриваются вопросы религиозного наставления правителя, даются политические советы, разъясняются принципы справедливости, а также излагаются взгляды на обеспечение порядка и стабильности в обществе. Произведение имеет значительную ценность для изучения социальной жизни эпохи правления тимуридского правителя Шохруха Мирзы.

Следует отметить, что данное сочинение относится к числу источников эпохи Тимуридов, которые до настоящего времени не были предметом исследования и не введены в научный оборот. В рамках данного исследования проанализированы биография автора, история и причины создания произведения, его рукописный список, кодикологические особенности, историческая ценность и место в историографии.

Изучение кодикологии произведения позволило выявить ценные сведения о традициях гератской школы каллиграфии, а также о характерных для эпохи Тимуридов декоративных приемах. Исследование раскрывает источниковедческую значимость данного произведения и на основе научного анализа обосновывает его актуальность для понимания современных социально-духовных процессов.

Ключевые слова: Джалалиддин Мухаммад Койиний, «Насаих-и Шохрухий», Герат, Шохрух Мирзо, исторические произведения, кодикология, справедливость, мухтасиб.

Annotation: Sources related to the Timurid period occupy a special place in the historiography of Central Asia. These written records serve as an essential factual basis for studying the Timurid era and are of great significance in describing the dynasty’s administrative principles, military activities, and the socio-political environment of the time.

This article examines the significance of Jalal al-Din Muhammad Qoiniy’s book “Nasa’yih-i Shahrukhi”, written by the author while serving as a muhtasib during the reign of Shahrukh Mirza. The treatise mainly addresses the provision of religious guidance to the sovereign, the delivery of political advice, the

exposition of principles of justice, and perspectives on maintaining social order and stability. This work is of great significance in illuminating the social life of the Timurid period during the reign of Shahrukh Mirza.

A noteworthy aspect is that this work is one of the sources from the Timurid period that has not yet been studied or introduced into scholarly circulation. The present research examines the author's biography, the history and motivations behind the composition of the work, its manuscript tradition and codicology, as well as its historical value and position in historiographical scholarship. An examination of the codicology of the work further provides valuable insights into the traditions of the Herat calligraphic school as well as the decorative styles distinctive to the Timurid era.

The study reveals the significance of this work from the standpoint of source studies and, on the basis of scholarly analysis, substantiates its relevance to contemporary socio-spiritual processes.

Keywords: Jalal al-Din Muhammad Qoiniy, "Nasa'yih-i Shahrukhi", Herat, Shahrukh Mirza, historical sources, codicology, justice, muhtasib.

KIRISH

Temuriy Shohrux Mirzo davriga oid manbalar Markaziy Osiyo tarixining eng muhim yozma yodgorliklaridan hisoblanadi. Ular Temuriylar saltanatining ikkinchi bosqichi, xususan, Shohrux Mirzoning shaxsiyati, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari hamda zamonasining ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shohrux Mirzo davriga oid asosiy manbalar qatorida Hofizi Abruning "Majmu at-tavorix", yoki "Zubdat ut-tavorix" (Muiniddin Natanziy, 2011:6; Nasrullayev N., 2020:267), Fasih Xavofiyning "Mujmali Fasihiy" (Muiniddin Natanziy, 2011:7; Bo'riyev O., 2017:351; Nasrullayev N., 2020:255), Jaloliddin Muhammad Qoiniyning "Nasoyih-i Shohruxiy", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlaus Sa'dayn" (Nasrullayev N., 2020:280) va boshqa asarlarni sanashimiz mumkin. Bu manbalar orasida Jaloliddin Muhammad Qoiniyning "Nasoyih-i Shohruxiy" asari alohida o'rin tutadi. Asar Shohrux Mirzoning davlatchilik faoliyatiga bag'ishlangan eng asosiy tarixiy manbalardan biri hisoblanadi.

"Nasoyih-i "Shohruxiy" asari mamlakatni adolat bilan boshqarish, aholining turli qatlamlari: mansabdor shaxslar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ijtimoiy ko'makka muhtoj tabaqalar va ularning ijtimoiy holati haqida muhim ma'lumot beradi. Asar shuningdek, mamlakatdagi harb ishi va fuqarolik siyosati yuzasidan mamlakatdagi mavjud vaziyatlar haqida bayon qilishi bilan ahamiyatlidir.

Asar Fasih Xavofiyning "Mujmali Fasihiy", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlaus Sa'dayn" va boshqa tarixiy manbalar kabi, voqealarni xronologik tartibda bayon etmay, balki nasihatnoma shaklida yozilgan. Shu jihatdan bu asar Nizomulmulkning "Siyosatnoma" (Nizomulmulk, 2023:12), Elxoniylar davrida yozilgan Ahmad al-Isfahbodiyning "Minhaj al-vuzaro va siroj al-umaro" ("Vazirlar yo'li va amirlar yo'lini yorituvchi chiroq") (Maria Eva Subtenly, 2007:108), kabi nasihatnoma shaklidagi asarlariga o'xshaydi.

"Nasoyih-i Shohruxiy" mazmuni, yozilish tarixi, qo'lyozma nusxasi, ilmiy nashrlari, tarixiy qiymati va tarixshunoslikdagi o'rni bilan Shohrux Mirzo davrini o'rganishda beqiyos manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

USLUBLAR

Tadqiqotni yoritish jarayonida va uning metodologik asosi hamda konsepsiyasini ishlab chiqishda zamonaviy tadqiqot usullari asos qilib olindi. Jumladan, tarixiylik, tadrijiylik, haqqoniylik, xolislik va ilmiylik tamoyillari asosida yondashildi. Turli manbalar, ma'lumotlarni muomalaga kiritish jarayonida ular ham qiyosiy tahlil etish asosida umumlashtirildi.

NATIJALAR

Olimning to'liq ismi – Mavlono Jaloliddin abu Muhammad ibn Najmuddin Muhammad ibn Shihobiddin Ubaydulloh al-Qoiniy, Buxoriy, Nasafiy, Hiraviy, Hanafiydir (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:15). U Qoin shahrida tug'ilgan. Qoin Xuroson mintaqasidagi Quhiston (Kuhiston) viloyatining markaziy shahri (Abdurazzoq Samarqandiy, 2008:642) bo'lib, hozirda Eronning janubi-sharqida joylashgan tarixiy shahar.

Jaloliddin Qoiniyning tarjimai holi, hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda oz miqdorda bo'lib, to'liq va tizimli tarzda jamlangan biror tadqiqot hozirgi kungacha mavjud emas. Bunga sabab olim va uning asari o'z davri muarrixlari tomonidan kam tilga olingan.

Jaloliddin Muhammad Qoiniy tug'ilganligi uchun unga Qoiniy, ajdodlari Nasaf va Buxoro shaharlaridan bo'lganligi uchun nasl jihatidan Buxoriy, Nasafiy, keying hayoti Hirot shahrida kechgani uchun makon jihatidan Hiraviy, fiqh maktabi va mazhabi jihatidan Hanafiy tahalluslari qo'shib aytilgan (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:15; M. Subtenly, A. Xolidov, 1995:218).

O'zining "Tibyan al-Kaboir" nomli asarining muqaddimasida nasabini Najmuddin Umar Nasafiyga bog'laydi: "Abu Muhammad Jalol al-Milla va ad-din Muhammad ibn Imom Najmuddin Muhammad ibn

Shihobuddin Ubaydulloh ibn Husomuddin Husayn ibn Imoduddin Umar ibn Kamoluddin Samsom ibn Shamsuddin Muhammad ibn Imom Najmuddin Umar Nasafiy (rahmatullohi alayh) (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:15).

Jaloliddin Muhammad Qoiniy tarix, islom huquqi, hadis ilmida yirik olim bo'lgan (Fasih Xavofiy, 2018:290; Xondamir, 2013:479). U “Qudvat an-nosihin va zubdat al-muhaddisin”, al-mavlo al-imom al-hamom (ulug' va jasur imom), mubayyin al-halol val-harom (halol va haromni bayon etuvchi), nosih al-muluk val-hukkam (podshoh va hukmdorlarga nasihatchi), sulton al-mudarrisin va burhon al-mavai'zin (mudarrisning sultoni va'zgo'ylarning dalili), Jalol al-haqq vad-din (haqiqat va dinning jaloli) kabi nomlar bilan ulug'langan (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:18-19).

Jaloliddin Qoiniyning zamondoshlari uni juda chuqur hurmat va ehtirom ila yod etadi. “Maqsad al-iqbol as-Sultoniyya” asari muallifi uni “nasihatgo'ylarning peshvosi va muhaddislarning sarasi” deb ta'riflab, u uzoq yillar davomida Hirot jome masjidining mehrobida va'z va xutbalar bilan shug'ullanganini qayd etadi. Muallif, shuningdek, Qoiniyning yod olish qobiliyatini yuksak baholab, shunday yozadi: “Agar u yodlab olgan narsalar yozib chiqilganida, odamlar hayratga tushgan bo'lur edilar” (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:25).

Olimning yoshligidanoq ahkomi shariyatga qattiq rioya qilgan va diniy kitoblarni ko'p mutolaa qilgan Temuriy Shohruh Mirzoning (Fayziyev T., 1995:298; Xasanov F., 2011:166) oldidagi xizmatlari beqiyos bo'lgan. Olimning qachon tug'ilganligi haqida ma'lumot bo'lmasa-da, uning vafot yili barcha manbalardan aniq ko'rsatilgan, bu ham bo'lsa 838/1435-yil (Fasih Xavofiy, 2018:290; Abdurazzoq Samarqandiy, 2008:54; Xondamir, 2013:479). U Jafarton qishlog'idagi o'zi qurdirgan madrasasiga dafn etiladi (Subtenly, Khalidov A., 1995:219). Allomaning vafoti sababi mazkur yilda Hirot shahrida vabo kasali tarqalishi bilan bog'liqdir (Xondamir, 2013:479).

Jaloliddin Qoiniy aqida, tarix, islom huquqi, hadis, ta'lim-tarbiyaga oid bir qancha asarlar yozgan, lekin uning asarlariga oid ma'lumotlar XV va undan keyingi asr manbalarida kam uchraydi. Shunga qaramay, turli kutubxona qo'lyozmalari kataloglarida uning bir nechta asarlari qayd etilgan bo'lib, hozirgacha ular nashr etilmagan.

Olimning eng asosiy asari “Nasoyih-i Shohruxiy” tarixiy asarlar ichida bevosita Temuriy hukmdor Shohruh Mirzoga atab yozilgan (Subtenly, 2007:107). Ushbu asar 813–820/1411–1417-yillar oralig'ida yozilib, islomiy diniy fanlar asosida musulmon hukmdorning to'g'ri boshqaruvi bo'yicha qo'llanma hisoblanadi (Subtenly, 2007:108).

Jaloliddin Muhammad Qoiniy asarning kirish qismida avvalo, dunyoda ko'plab podshohlar, saltanat

egalarini zikr qilib, Shohruh Mirzodek dindor, adolatli va shariyatni himoya qilguvchi hukmdorlar kam bo'lganini zikr qiladi. Uni islom binosining me'mori, shariyat bayrog'ining himoyachisi, islom va musulmonlarning panohi deya zikr qiladi (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, qo'lyozma:1v). 813/1410-1411-yilda Shohruh Mirzoning turkiy-mo'g'ulcha “yarg'u” va “to'ra” (Turkiy-mo'g'ul davlatchiligida urf-odatlariga asoslangan qadimiy qonun va tartib-qoidalar majmuasi) dan voz kechib, islom shariatiga asoslangan boshqaruvni qabul qilgani haqida yozadi. Ayni shu yildan boshlab Shohruh Mirzo ko'plab yuqori tabaqa vakillari ichkilikka mukkasidan ketgani sabab ichkilikka qattiq kurash olib boradi. Mayxonalarni buzdiradi va ichkilikka qarshi qonun chiqarib, davlat devoni orqali muhrilanadi. Muhr bu Allohning fazlidir, U O'zi xohlagan kishisiga ato qiladi degan oyat mazmunidagi tug'ra bilan bezatilgan edi (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:4-5). Jaloliddin Muhammad Qoiniy asar muqaddimasida “Albatta, Alloh taolo har bir yuz yillik boshida ummat uchun ularning dinini yangilaydigan kishini yuboradi”, ya'ni, Alloh taolo har bir yuz yil o'tganida, bu ummat uchun ularning dinini yangilaydigan, shariat hukmlarini tatbiq etadigan, sunnatni jonlantiradigan kishini paydo qiladi ma'nosidagi hadisga binoan bu hadisning mazmun va maqsadi Shohruh Mirzo davrida amalga oshirishini ta'kidlab o'tadi. Chunki 813/1410-1411-yillar Rasululloh ﷺ vafot etgan vaqtlaridan roppa-rosa 800 yil o'tgan vaqtga to'g'ri kelashi aytib o'tadi (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:5).

Muqaddimaning davomida muallif asarning yozish sababini keltirib o'tadi. Unga ko'ra quyidagi hadisni keltiradi.

إِنَّ الدِّينَ النَّصِيحَةُ. إِنَّ الدِّينَ النَّصِيحَةُ. إِنَّ الدِّينَ النَّصِيحَةُ. قَالَوا :
لَمَنْ يَا رَسُولَ اللَّهِ ؟ قَالَ : لِلَّهِ وَلِكِتَابِهِ وَلِرَسُولِهِ وَلِأَئِمَّةِ الْمُسْلِمِينَ وَعَامَّتِهِمْ.

“Din – nasihatdir” hadisiga binoan Rasululloh ﷺ bu so'zni uch marta takrorlaganlarida: “Kimga nasihat?” deb so'ralganida: “Allohga, Uning Kitobiga, Uning rasullariga, musulmonlarning rahbarlariga va ularning umumiga”, – deb javob berganlar. Shunga hadisga ko'ra, men kamina Jalol ibn Muhammad ibn Ubaydulloh al-Qoyiniy, nasafiy nasabdan, buxoriy ildizdan, Hirotida istiqomat qilib, shu yerda ilm bilan mashg'ul bo'lgan kishi sifatida, bu ulug' davlati hazratlari uchun sadoqatli duo va nasihat bilan chiqdim deya aytib o'tadi (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:5). Ilm ahlining nasihati to'g'ri yo'lga boshlash, ogohlikka undash va hidoyat sari yo'naltiruvchi eslatmalar orqali amalga oshirishini ta'kidlab ushbu asarni ta'lif qilganini bayon qiladi (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:6).

Muallif bu asarda podshohlar odobi va yo'liga doir bir necha bob ajratganini bayon qiladi. Unda “Tafsiri Nasafiy”, “Madorik”, “Kashshof”, “Lubob”, “Tafsiri imom ar-Rozi”, Imom Jalil Ali Vohidiy, Ahqoq, Bustiy,

Sa'labi, Mug'ni va Mutollilarning tafsirlari, Shayx Najmuddin Kubroning tafsiri va "Durar", "Favo'id", "Mukmal", "Uyun at-tafasir", "Kanz al-maoni", "Tafsiri Qushayriy", "Haqoyiqi Sulamiy" va boshqa tafsirlardan foydalanganini yozadi (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:6).

Hadis kitoblardan imom Molikning "Muvatto", to'rt imomlarning "musnad" asarlari, "Sahih Buxoriy", "Sahih Muslim", "Sunan Abu Dovud", "Termiziy", "Nasoiy", "Dorimiy", "Ibn Mojja", "Masobih", "Mishkot al-Masobih", "Mishariq al-anvor", "Riyoz as-solihin", "Azkor" (Imom Navaviy), "Jomi' al-usul", "Maolim as-sunan" (Bayhaqiy), "al-Misbah al-mudiy" (Abdurrahmon al-Javziy), "Musalsalat" (ustozimiz Sa'id al-Milla va'd-Din al-Kozaruniy rahimahulloh) va boshqalar;

Fiqhiy kitoblardan "Jome as-sag'ir", "Jome al-kabir", "Ziyodat", "Mabsut", "Hidoya", "Bidaya", "Kofiya", "Vofiya", "Fatavo Qozixon", "Zohiriyya", "Tuhfa", "G'aniya", "Jome as-sag'ir Qozixon", "Jome al-kabir Qozixon" va boshqa asarlardan foydalanganini va har bir rivoyat tegishli manba nomi bilan keltirilishini yozadi (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:6).

Asarning asl nusxasi to'rt qismga bo'lingan va unga "Nasoyih-i Shohruxiy" ("Shohrux uchun nasihatlar") deb nom berildi.

Asarning yaratilish tarixi va mazmuni

Bu asar asosan hukmdorlarga diniy yo'l-yo'riq berish, siyosiy maslahatlar ko'rsatish va adolat tamoyillarini tushuntirish uchun yozilgan ilmiy-nazariy qo'llanmadir.

"Nasoyih-i Shohruxiy" Temuriylar davrida Xuroson, ayniqsa Hirotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va diniy holatlar haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlarga ega asardir.

Alloma hayotiga zamondosh yoki yaqin asrdagi manbalarda "Nasoyih-i Shohruxiy" yoki uning boshqa asarlari keltirib o'tilmagan. Biroq olimga nisbatan qo'llanilgan "qudvat an-nosihin" (nasihatgo'ylarning peshvosi), "nosih al-muluk val-hukkam" (podshohlar va hukmdorlarga nasihatgo'y) kabi atamalarning ishlatilishi uning mazkur asarni yozganiga dalolat qilishi ehtimoldan xoli emas (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:6).

Asar tuzilishi jihatidan o'n asosiy bob, so'ngra alohida yana to'rt bo'limdan tashkil topgan. Kitobning o'n asosiy boblari quyidagilardan iborat (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:6):

1. Podshohning niyati haqida;
2. Podshohlik orqali shariatning barcha huquqlarini ado etish haqida;
3. Davlat egalari uchun Qur'on oyatlarida keltirilgan ibratlar haqida;
4. Davlat ahliga tegishli bo'lgan Payg'ambar ﷺ hadislarini keltirish haqida;

5. Hokimlik va saltanatning qadrini bilish haqida;
6. Zulm bilan birlashgan hokimlikning zarar va xavflari haqida;

7. Eng ko'p nasihatga muhtoj kimsalar hukmdorlar ekani haqida;

8. Podshohning taqvodor va rostgo'y olimga ehtiyoji haqida;

9. Podshohlarga qilinadigan nasihat va duo ham manikidan afzal ekani haqida;

10. Podshohlarga nasihat qilish shartlari haqida. Keyingi to'rt bo'lim esa quyidagicha (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:8):

1. Fuqarolarga adolat bilan munosabatda bo'lish;
2. Zaif va ojizlarga rahm-shafqat ko'rsatish;
3. Lashkar (harbiylik) ishlari haqida;
4. Fuqaroni, ayniqsa buzuq va tartibsiz kishilarni siyosat bilan boshqarish haqida.

MUNOZARA

Muallif kirish qismida asarni yozishda asoslangan manbalar ro'yxatini keltiradi. Ular orasida islom huquqi, fatvolar to'plamlari, Qur'on tafsirlari, hadis to'plamlari, ilohiyotga oid manbalar (Imom G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din") asari kabi va Nizomulmulukning "Siyosatnoma" kabi humdorlar uchun yozilgan nasihatnomalar turkumidagi asarlar mavjud bo'lib, ulardan keng iqtibos keltirilgan (Subtenly, 2007:108). Asar va'zgo'y ohangda va diniy ruhda yozilgan bo'lib, bu jihatdan u Elxoniylar davrida yozilgan Ahmad al-Isfahbodiyning "Minhaj al-vuzaro va siroj al-umaro" ("Vazirlar yo'li va amirlar yo'lini yorituvchi chiroq") nomli arab tilidagi nasihatnoma asariga o'xshaydi (Subtenly, 2007:108).

Jaloliddin Qoyiniy asarida ko'pincha Qur'on oyatlari va hadislarning sharhiga keng o'rin bergan. Shu turdagi yana bir muhim manba Husayn Boyqaro davrining mashhur voizi Husayn Voiz Koshifiy (vaf. 910/1504–1505) qalamiga mansub "Axloq-i Muhsiniy" asaridir. Asarning muallifi aslida Mavlono Kamoliddin Husayn ibn Ali Bayhaqiy Sabzavoriy bo'lib, u mazkur asarni Husayn Boyqaroning o'g'li Abul-Muhsin Mirzo nomiga 1495-yilda yozgan (Musa Shamil Yuksel, 2007:29).

"Nasoyih-i Shohruxiy" asarining yagona nusxasi maxsus ravishda hukmdor kutubxonasi uchun ko'chirilib, Shohruxning shaxsiy foydalanishi uchun yozilgan. Bundan kelib chiqadiki, bu asar keng omma uchun mo'ljallanmagan (Subtenly, 2007:108).

Asarning bugungi kunda ma'lum bo'lgan yagona qo'lyozma nusxasi Avstriya Milliy kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxa dastlab Shohrux Mirzoning shaxsiy kutubxonasiga tegishli bo'lgan. Mazkur nusxa 342 varaqdan iborat.

Umuman olganda, bu asar asosan hukmdorlarga diniy yo'l-yo'riq berish, siyosiy maslahatlar ko'rsatish

va adolat tamoyillarini tushuntirish uchun yozilgan ilmiy-nazariy qo'llanmadir.

“Nasoyih-i Shohruxiy” Temuriylar davrida Xuroson, ayniqsa Hirotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va diniy holatlar haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlarga ega asardir.

Asar Shohrux davrida din va davlat munosabatlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega (Musa Shamil Yuksel, 2007:29). Asardan foydalanishni qiyinlashtirgan omillardan biri uning bizgacha faqat bitta qo'lyozma nusxasi yetib kelganidir (Musa Shamil Yuksel, 2007:29).

Subtenlyning fikriga ko'ra, asarning Shahrux siyosatiga qanchalik ta'sir qilganini aniq aytish qiyin. Biroq, bu asar Shohruxning 813/1411-yilda turkiy-mo'g'ulcha “to'ra” dan voz kechib, islomiy shariatga asoslangan boshqaruvni qabul qilgani haqidagi rivoyatlar bilan mos keladi. Muallif bu asar orqali Shahrux Mirzoga islom podshohi sifatidagi mavqeiga mos ravishda qanday boshqaruv yuritishi kerakligini ko'rsatmoqchi bo'lgan (Subtenly, 2007:109).

Ibn Arabshoh Shohruxning yasoq (Mo'g'ul imperiyasi davrida Chingizxon tomonidan tuzilgan qonunlar to'plami bo'lib, bu qonunlar keyinchalik boshqa turkiy va musulmon davlatlar qonunchiligiga ham ta'sir ko'rsatgan) qonunlarini bekor qilib, islom shariati qonunlarini joriy qilishni amr qilganini yozsa-da, lekin u bunga ishonmaydi. Uning nazdida Chingiz qoidalari temuriylar uchun muayyan bir din shakliga kirib, chinakam e'tiqodga aylanib qolgan edi (Ibn Arabshoh, 2019:399). Ibn Arabshohning shubha bilan qaragan fikrlariga qaramay, Shahrux ushbu nasihatlarining ayrimlarini jiddiy qabul qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas (Subtenly, 2007:110).

Asar kodikologiyasi

Jaloliddin Muhammad Qoiniyning “Nasoyih-i Shohruxiy” asari Temuriylar davrining siyosiy va axloqiy tafakkurini yorituvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarning Avstriya Milliy kurubxonasida saqlanayotgan yagona qo'lyozma nusxasi XIV–XV asrlar chegarasida yaratilgan noyob madaniy yodgorlikdir.

Asarning kodikologik tahlili, ya'ni qo'lyozmaning tashqi tuzilishi, materiali, yozuv xususiyatlari, bezak, muqova, saqlanish holati va tarixiy kontekstini ilmiy jihatdan o'rganish qo'lyozmaning haqiqiy ilmiy qiymatini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qo'lyozma Avstriya milliy kutubxonasida (Vienna, Nationalbibliothek) Cod. A.F. 112 raqam bilan saqlanmoqda. Asarning kutubxonadagi belgisi *Cod. A. F. 112 HAN MAG*, barkod raqami +Z130772109, ID raqami esa AC14376809 tarzida qayd etilgan. Qo'lyozma o'lchami 250/175 mm. ni tashkil qiladi.

Qo'lyozma nasta'liq yozuvida bitilgan. Bu uslub XV asrda Hirot maktabida keng tarqalgan bo'lib, nozik egri chiziqlar, so'zlar orasidagi muvozanat va harflarning

silliqlik o'tishlari bilan ajralib turadi. So'zlar orasidagi masofa teng, satrlar parallel tarzda joylashgan. Matnda ayrim joylarda marginal izohlar uchraydi, ular ehtimol kotib tomonidan qo'shimcha izoh sifatida yozilgan. Matn kompozitsiyasi o'qiluvchan, qat'iy tartibga solingan, boblar orasida bo'sh joy qoldirilmagan. Xattotlik uslubiga ko'ra, bu nusxa professional kotib tomonidan ko'chirilgan.

Sahifalar poygirlingangan. Qo'lyozmada muallif ismi جلال بن محمد بن عبيد الله القايني مولدا و النسفى ثم البخارى محتدا و Jalol bin Muhammad bin Ubaydulloh al-Qoyiniy mavlidan va an-nasafiy summa Al-Buxoriy muhtaddan va Al-Hiraviy maskanan va maksaban deya, asar nomi esa نصايح شاه رخى (Nasoyih-i Shohruxiy) deya yozilgan. Ushbu qo'lyozma jami 342 varaqdan va 25 x 17,5 sm o'lchamdan iborat. Katalogda bu I + 342 + I tarzida ko'rsatilgan bo'lib, bu ifoda birinchi va oxirgi muqova varaqlari hisobga olinganini bildiradi. Manba to'liq raqamlashtirilgan, ya'ni zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida skanerlab elektron shaklga keltirilgan. Raqamli tasvirlarda varaqlarning rangi, siyoh sifati, bezak tuzilmasi aniq ko'rinadi. Bu raqamlashtirish ilmiy tahlil uchun yangi imkoniyatlar optik tahlil, rang tahlili, harf morfologiyasi va kodikologik o'lehovlarni avtomatik aniqlash imkonini beradi. Qo'lyozma qisman shikaftlangan, ammo umumiy holati yaxshi. Ba'zi varaqlarda chetlar yirtilgan, ayrim joylar tikilgan. Siyohning tabiiy oksidlanishi tufayli sarlavhalar biroz xiralashgan.

Uning muqovasi qalin karton va teridan tayyorlangan. U Dastlab Hirotida tayyorlangan teri muqova bilan XVI asrda lakli muqovaga aylantirilgan. Bu turdagi muqovalar, odatda, temuriylar davridan keyingi miniatyura maktablarida keng qo'llanilgan bo'lib, asarga badiiy jilo beradi. Muqovaning o'rtasidagi asosiy bezak medalyon va to'rt burchaklardagi naqshlar teriga maxsus bosma usul bilan tushirilgan. Bu usulda naqsh teri yuzasiga yassi yoki biroz chuqur holatda bosiladi. Ahamiyatli jihati uning ichki tomoni qizil maroken teridan, o'yma naqshlar esa ko'k fon ustiga joylashtirilgan. Maroken yuqori sifatli, yumshoq qo'y terisidan tayyorlanadigan qimmatbaho teri bo'lib, o'rta asrlarda faqat saroy yoki sulton kutubxonasidagi asarlarga ishlatilgan xolos. Muqova tutqichli shaklda bo'lib, bu sharq qo'lyozmalariga xos an'anadir. Bog'lov iplarining ayrim joylari restavratsiya qilingan. Labagisi tilla rangda. Qo'lyozma badiiy jihatdan yuqori darajada bezatilgan. Bezaklarda oltin, to'q jigarrang va ko'k pigmentlar ishlatilgan. Naqshlarda Temuriylar davriga xos simmetrik kompozitsiya va ranglar uyg'unligi seziladi.

Qo'lyozmaning bezak tizimida ko'k fon ustida o'yilgan teri naqshlar, ornamentli miniatyuralar hamda boshlang'ich sahifalardagi zarrin (oltin) naqshlar

mavjud. Asarning ikki sahifasida ornamental miniatyura ishlangani qayd etilgan bo'lib, bu sahifalar, ehtimol, muqaddima yoki Shohrux Mirzoga bag'ishlov qismi bilan bog'liq bo'lgan.

Qo'lyozma forsiy nastaliq xatida yozilgan. Har bir varoqda satrlar soni 14 ta, varoq o'lchami 18 × 24 sm va matn o'lchami 10 × 15. sm. Asar to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, varoqlar 1-1 v, 2-2v shaklida raqamlangan. 1 v varoqdan boshlab asarning kirish qismi boshlangan asarning kirish qismidan oldingi varoqda "Be-rasmi xazonayi sultonul a'zam va xoqonul adl Shohrux Bahodirxon, xollada mulkahu va sultanahu" (Ulug' Sulton va adolatli Xoqon Shohrux Bahodirxon xazinasiga xosdir, mulki va saltanati abadiy bo'lsin) degan shamsa (shamsa qadimiy qo'lyozmalarda kitobning boshida joylashgan bezakli muhr yoki ramziy tasvir bo'lib, u odatda hukmdorlar, amirlar yoki kutubxona egalari tomonidan kitobning rasmiyligini va uning yuqori maqomini ifodalash maqsadida qo'yilgan) mavjud (2-ilova). Shamsa temuriylar davriga xos bo'lgan naqshikor usulda bezatilgan. Shamsaning chetlari to'q yashil rang ustiga naqsh bitilgan. 4 v varoqda asarning mundariyasi keltirilgan. 6 v varoqdan esa asarning bobi boshlangan.

Asarning boblari ba'zi o'rinda jigarrang va ba'zi o'rinda to'q yashil siyoh bilan ajratilgan. Asosiy matn qora jigarrang siyohda yozilgan, sarlavha va ajratma joylarda Siyoh oksidlanishi natijasida ayrim satrlar biroz xiralashgan bo'lsa-da, o'qish imkonini yo'qotmagan.

Asarning chetlari dastlab to'q jigarrang ramka bilan o'ralgan, uning ustki tomonidan esa yana bir to'q yashil rangli hoshiya chizig'i tortilgan, ya'ni sahifa ikki qavatli hoshiya chizig'i bilan bezatilgan. Asarning hoshiyasida ba'zi o'rinlarda asosiy matnga izohlar bitilgan. Asarning poygirdi mavjud. Asar o'rtacha holda saqlangan.

Asar boshi:

بسم الله الرحمن الرحيم الحمد لله الذي جعل الملوك خلائف الارض
و رفع بعضهم فوق بعض درجات وَلَوْلَا دَفْعُ اللَّهِ النَّاسَ بَعْضَهُمْ بِبَعْضٍ
لَهْلَمَّتْ صَوَامِعُ وَبَيْعٌ وَصَلَوَاتٌ وَمَسَاجِدُ يُذَكَّرُ فِيهَا اسْمُ اللَّهِ كَثِيرًا
و الصلوة والسلام الاتمان الاكملان على رسول الله محمد معدن
السيادة و منبع السعادات و على آله و اصحابه المفضلين بكرامته. يَرْفَعُ
اللَّهُ الَّذِينَ آمَنُوا مِنْكُمْ وَالَّذِينَ أُوتُوا الْعِلْمَ دَرَجَاتٍ. اما بعد...

Tarjimasi. Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman. Allohga hamd bo'lsinki, Podshohlarni yerning xalifalari qilib yaratgan va ularning ba'zilarini ba'zilaridan martabada yuksak qilgan Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin.

Agar Alloh odamlarning ba'zilarini ba'zilar bilan daf qilib turmasa, albatta, Alloh nomi ko'p zikr qilinadigan (rohiblarda) uzlatgohlar, nasroniylarda (butxonalar), yahudiylarda ibodatxonalar va (musulmonlarda) masjidlar vayron qilingan bo'lur edi (Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi shayx Abdulaziz Mansur, 2009:337).

Eng to'liq salovot va salomlar esa ulug'lik, rahbarlik manbai va saodatlar chashmasi bo'lgan Allohning rasuli Muhammad (s.a.v.) hamda U zotning karomati bilan ulug'langan ahli bayti va sahobalariga bo'lsin. Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba) larga ko'tarur (Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi shayx Abdulaziz Mansur, 2009:543) ...

Asar oxiri:

جامع این کتاب میگوید اصلح الله تعالى شانه که چون جميع معانی
این کتاب در یک سخن شیخ ابوالقاسم حکیم سمرقندی رحمه الله درج
بود بر سبیل اجمال ختم کردیم این کتاب را بر آن سخن و آن سخن آن
است که یکی از سلاطین از وی طلب نصیحتی کرد گفت: چنان زی که
تا زنده باشی ثنای تو گویند و چون مرده باشی دعای تو گویند. الهی اگر
در نیت این کمینه نقصانی بود در جمع کردن این کتاب، تو به فضل
خود و کرم عمیم خود آن نقصان بردار و این جمع را نافع گردان در
دل پادشاهان جهان خصوصاً در دل پادشاه زمان

Ushbu kitobni jamlagan muallif "Alloh taolo sha'nini ulug'lasin" shunday deydi: bu kitobdagi barcha ma'nolar aslida shayx Abu'l-Qosim Hakim Samarqandiyning bir so'zida mujassam bo'lgani uchun biz kitobni ana shu hikmat bilan yakunladik. Hikmat shundaydir:

"Shunday yashaginki, tirik chog'ingda odamlar seni maqtasinlar, vafotingdan so'ng esa duo qilsinlar."

Ey, Parvardigor, agar bu ojiz bandaning bu kitobni jamlashdagi niyatida biror kamchilik bo'lgan bo'lsa, O'z fazlu karaming bilan uni bartaraf etgin va bu to'plamni dunyo podshohlarining, xususan, zamon podshohining diliga foydali qilgin.

Asarning kalofon qismi:

و الحمد لله رب العالمين والصلوة والسلام على رسوله محمد و آله
و اصحابه اجمعين تمت يوم الاربعاء السابع والعشرين من جمادى الآخر
سنة عشرين وثمانماية.

اللهم اغفر لجامع و الناظر والمطالع و لوالديهم ولاستاديههم و
للمومنين و المومنات ويرحم الله عبدا قال آمينا آمين.

Tarjimasi. Butun olamlarning Parvardigori Allohga hamd bo'lsin, Uning rasuli Muhammad ﷺ hamda butun ahli bayti va sahobalariga salovot va salomlar bo'lsin. Ushbu asar sakkiz yuz yigirmanchi hijriy yil jumodul oxir oyining yigirma yettinchi chorshanba kuni yakunlandi. Allohim bu kitobni jamlagan, unga nazar solgan va uni o'qigan zotni, ularning ota-onalarini, ustozlarini, hamda barcha mo'min va mo'minalarni mag'firat qilgin va "Omin, Omin" deganni Alloh rahm qilsin (Jalol ibn Muhammad Qoiniy, 2025:356).

"Nasoyih-i Shohruxiy" qo'lyozmasining kodikologik tahlili shuni ko'rsatadiki, asar nafaqat diniy-axloqiy mazmuni, balki o'z davrining kitobat madaniyati yodgorligi sifatida ham beqiyos ahamiyatga ega. Qo'lyozma Hirot maktabi xattotlik an'analari, Temuriylar davriga xos bezak uslubi, sifatli qog'oz bilan ajralib turadi. Raqamlashtirilgan nusxa esa bugungi tadqiqotchilar uchun qo'lyozma kodekologiyasining

barcha tafsilotlarini chuqur o'rganish imkonini ta'minlaydi.

Mazkur asar hozirga qadar faqat bir marotaba nashr etilgan bo'lib, u G'ulomriza Amirxoniy tomonidan ilmiy-tanqidiy tarzda tayyorlangan. Asar "Mirose Maktub" tadqiqot instituti tomonidan nashrga tayyorlangan.

XULOSA

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Jaloliddin Muhammad Qoiniyning "Nasoyih-i Shohruxiy" asari eng ishonchli va muhim yozma manbalardan biridir. Uning ishonchliligi shundaki, qo'lyozma avtograf nusxa bo'lib, keyingi ko'chirishlar davomida unga hal-xil o'zgartirishlar kiritilgan, unda qo'shimcha va xatolar mavjud degan shubha va gumonlardan yiroqdir. Asar kimdurning buyurtmasi asosida ham yozilmagan, bu jihatdan Shohrux Mirzo davridagi siyosiy muhit va ijtimoiy hayotni haqqoniy yoritishligi bilan qadrlidir. Asar yana Shohrux davrida din va davlat munosabatlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.

Jaloliddin Muhammad Qoiniyning "Nasoyih-i Shohruxiy" asarini tadqiq qilish va ilmiy muomalaga kiritish bugungi tarixshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Абдураззоқ Самарқандий. (2008). Матлаъи саъдайн ва маҷмаъи баҳрайн / Форс тилидан таржима қилувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи – А. Ўринбоев; Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшunoslik институти. – Тошкент: Ўзбекистон. – Ж. II. – 832 б.
2. Aka, İsmail. (2022). Mirza Şahrux: Timur'un Hükümdar Oğlu, Uluğ Bey'in Babası (1405–1447). İstanbul: Kronik. – 416 s.
3. Бўрибой Ахмедов. (2001). Ўзбекистон Тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи. – 352 б.
4. Фасих Ахмад ибн Жалолиддин Муҳаммад ал-Хавофий. (2018). Мучмалӣ Фасихий / Форс тилидан таржима қилувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи – Д. Юсупова; ЎЗР ФА. – Тошкент: Фан. – 544 б.
5. Ф. Ҳасанов. (2011). Маънавият юлдузлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 368 б.
6. Ибн Арабшоҳ. (2019). Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. – Тошкент: Фан. – 513 б.
7. جلال ابن محمد قينى نصابى شاهرخى. – وين، كتابخانه ملي. دستنويس. Cod. A.F. 112 – ۲۴۲ ص.
8. جلال ابن محمد قينى ۲۰۲۵. نصابى شاهرخى/ تصحيح و تحقيق غلامرضا اميرخانى. تهران: ميراث مکتوب، – ۴۱۳ ص.
9. Maria Eva Subtelny. (2007). Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leyden-Boston: Brill. – 439 b.
10. Musa Shamil Yüksel. (2007). Timuriylarda Din-Devlet İlişkisi, Doktora Tezi, Ege Üniversitesi sosyal bilimler

enstitüsü tarih anabilim dalı, İzmir, 2007; Prof. Dr. İsmail Aka, İzmir. 269 s.

11. Муиниддин Натанзий. (2011). Мунтахаб ут-таворих Муиний. Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар: Ф. Каримов. – Тошкент: Ўзбекистон. – 264 б.
12. Насруллаев Н. (2020). Манбашунослик асослари. – Тошкент: Наврўз. – 448 б.
13. Низомулмулк. (2023). Сиёсатнома. Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар: Ш. Воҳид, А. Эркинов. – Тошкент: Ёшлар матбуоти. – 304 б.
14. Омонулла Бўриев. (2017). Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент: Мумтоз сўз. – 351 б.
15. Куръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири (2009) / Таржима ва тафсир муаллифи шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети. – 624 б.
16. Subtelny. (2007). Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leyden-Boston: Brill. – 414 b.
17. Subtelny M., Khalidov A. (1995). The Curriculum of Islamic Higher Learning in Timurid Iran in the Light of the Sunni Revival under Shah Rukh // Journal of the American Oriental Society. № 2. – P. 210–236. – 115 p.
18. Тўрғун Файзиев. (1995). Темурийлар шажараси. – Тошкент: Ёзувчи. – 351 б.
19. Хондамир. (2013). Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима қилувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари – И. Бекжонов, В. Рахмонов; Бобур Халқаро Жамоат Фонди. – Тошкент: Ўзбекистон. – 1272 б.

REFERENCES

1. Abdurazzoq Samarqandiy. (2008). Matlai sa'dayn va majmai bahrayn / Fors tilidan tarjima qiluvchi, so'zboshi va izohlar muallifi – A. O'rinboyev; O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. – Toshkent: O'zbekiston. – J. II. – 832 b.
2. Aka, İsmail. (2022). Mirza Şahrux: Timur'un Hükümdar Oğlu, Uluğ Bey'in Babası (1405–1447). İstanbul: Kronik. – 416 s.
3. Bo'riboy Ahmedov. (2001). O'zbekiston Tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi. – 352 b.
4. Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiy. (2018). Mujmali Fasihiy / Fors tilidan tarjima qiluvchi, so'zboshi va izohlar muallifi – D. Yusupova; O'zR FA. – Toshkent: Fan. – 544 b.
5. F. Hasanov. (2011). Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 368 b.
6. Ibn Arabshoh. (2019). Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. Toshkent: Fan. – 513 b.
7. Jalol ibn Muhammad Qoiniy. Nasoyih-i Shohruxiy. – Vienna, Nationalbibliothek. – Qo'lyozma. Cod. A.F. 112 – 342 b.
8. Jalol ibn Muhammad Qoiniy. (2025). Nasoyih-i Shohruxiy / Tahqiq muallifi: G'ulomriza Amirxoniy. – Tehron: Meros-e maktub. – 413 b.

9. Maria Eva Subtelny. (2007). Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leyden-Boston: Brill. – 439 b.
10. Musa Shamil Yüksel. (2007). Timuriylarda Din-Devlet İlişkisi, Doktora Tezi, Ege Üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü tarih anabilim dalı, İzmir, 2007; Prof. Dr. İsmail Aka, İzmir. 269 s.
11. Muiniddin Natanziy. (2011). Muntahab ut-tavorixi Muiniy. Tarjima, kirish, izohlar va ko'rsatkichlar: G'. Karimov. – Toshkent: O'zbekiston. – 264 b.
12. Nasrullayev N. (2020). Manbashunoslik asoslari. – Toshkent: Navro'z. – 448 b.
13. Nizomulmulik. (2013). Siyosatnoma. Tarjima, kirish, izohlar va ko'rsatkichlar: Sh. Vohid, A. Erkinov. – Toshkent: Yoshlar matbuoti. – 304 b.
14. Omonulla Bo'riyev. (2017). Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z. – 351 b.
15. Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. (2009) / Tarjima va tafsir muallifi shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent-Toshkent islom universiteti. – 624 b.
16. Subtelny. (2007). Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leyden-Boston: Brill. – 414 b.
17. Subtelny, M., Khalidov A. (1995). The Curriculum of Islamic Higher Learning in Timurid Iran in the Light of the Sunni Revival under Shah Rukh // Journal of the American Oriental Society. – № 2. – P. 210–236. – 115 p.
18. Turg'un Fayziyev. (1995). Temuriylar shajarasi. . – Toshkent: Yozuvchi. – 351 b.
19. Xondamir. (2013). Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar / Fors tilidan tarjima qiluvchi, so'zboshi va izohlar mualliflari – I. Bekjonov, V. Rahmonov; Bobur Xalqaro Jamoat Fondi. – Toshkent: O'zbekiston. – 1272 b.

2-ilova



3-ilova



1-ilova



4-ilova

